

Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi

SH.Hamroyev
VXTXQTVOI Maktabgacha,
boshlang'ich va maxsus ta'lim
kafedrası katta o'qituvchisi, pfn.

O'zbekiston mustaqilligi, uning ravnaqi ko'p jihatdan yoshlarni qanday o'qitish va tarbiyalashga bog'liq. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach barcha sohalarida bo'lgani kabi xalq ta'limi tizimida ham tub o'zgarishlar qilinmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun (1997), Prezident I.A.Karimovning asarlari, nutqlari bu ishlarda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish juda muhim. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ma'naviy va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish lozimligi alohida ta'kidlangan. Bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shubhasiz, xalqimizning bir necha asrlarga borib taqaluvchi urf-odat, an'ana va qadriyatlari hamda pedagogik merosidan, umumbashariyat tafakkur xazinasiga katta hissa ko'shgan ma'rifatparvarlarimizning axloqiy asarlaridan ijodiy foydalanish juda muhimdir. Zero, sinfdan tashqari vaqtda o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar keng tarbiyaviy imkoniyatga ega bo'lib, so'z bilan ish birligini, axloqiy tushunchalarining xulqiy ko'nikma, odat, malakalarga aylanishini ta'minlaydi.

– O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topib borishida, shubhasiz, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayoni muhimdir. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda, ularning ongiga, shuuriga ta'sir ko'rsatishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar katta ahamiyatga molik, bu ishni muvaffaqiyatli hal qilishda, albatta, o'qituvchilardan chuqur bilim, izlanish, fidoyilik talab qilinadi. Eng avvalo o'qituvchilar, jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'tkazish metodikasini chuqur bilishlari juda muhimdir. Biz tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida bir qator sinfdan tashqari tadbirlarni amalga oshirdik, unda yangi usul maktabi tarafdorlarining darsliklaridagi axloqiy tarbiyaga doir matnlarni asos qilib oldik.

I.A.Karimov Oliy Majlisning IX majlisida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, "Eski ta'lim tizimining eng yomon qusuri boshlang'ich ta'limga ikkinchi darajali ish deb qarayotganimizdadir. Ochiq aytishimiz kerak: bilimi sayoz muallimlar ham birinchi sinfda dars beraveradi...

Vaholanki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng etuk, eng tajribali murabbiylar biriktirilib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi".

Darhaqiqat, bu holat bolalarning tarbiyasiga, ayniqsa, axloqiy tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, bu kamchiliklarga

barham berila boshlandi. 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri-ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarga katta e'tibor berilgan: "Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi".

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish juda muhim. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ma'naviy va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish lozimligi alohida ta'kidlangan. Bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shubhasiz, xalqimizning bir necha asrlarga borib taqaluvchi urf-odat, an'ana va qadriyatlari hamda pedagogik merosidan, umumbashariyat tafakkur xazinasiga katta hissa qo'shgan ma'rifatparvarlarimizning axloqiy asarlaridan ijodiy foydalanish juda muhimdir. Zero, sinfdan tashqari vaqtda o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar keng tarbiyaviy imkoniyatga ega bo'lib, so'z bilan ish birligini, axloqiy tushunchalarning xulqiy ko'nikma, odat, malakalarga aylanishini ta'minlaydi.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topib borishida, shubhasiz, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayoni muhimdir. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda, ularning ongiga, shuuriga ta'sir ko'rsatishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar katta ahamiyatga molik, bu ishni muvaffaqiyatli hal qilishda, albatta, o'qituvchilardan chuqur bilim, izlanish, fidoyilik talab qilinadi. Eng avvalo o'qituvchilar, jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'tkazish metodikasini chuqur bilishlari juda muhimdir. Biz tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida bir qator sinfdan tashqari tadbirlarni amalga oshirdik, unda yangi usul maktabi tarafdorlarining darsliklaridagi axloqiy tarbiyaga doir matnlarni asos qilib oldik. Boshlang'ich ta'lim amaliyotida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni quyidagi shakl-usullarda o'tkazish maqsadga muvofiq:

- axloqiy mavzudagi suhbatlar;
- kitoblar ko'rgazmasi;
- adabiy ertaliklar;
- kitobxonlik konferensiyalari;
- qiziqarli savol-javob o'yinlari (viktorinalar).

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilimdon, odob-axloqli, o'z kasbining fidoyisi bo'lishi zarur. O'qituvchi sinfdan tashqari o'tkaziladigan **axloqiy mavzudagi suhbatlarga** alohida e'tibor berishi kerak. Zero, sinfdan tashqari o'tkaziladigan

ishlar jarayoni muhim bo'lib, o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda etakchi ahamiyatga ega. Bizning kuzatishlarimiz, ilmiy-tajriba ishlarimizning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinflarda axloqiy mavzudagi suhbatlar o'tkazishning ahvolini qoniqarli holda deb bo'lmaydi. Bunga asosiy sabablar:

a) aksariyat maktablarning boshlang'ich sinflarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida yangi usul maktabi tarafdorlarining merosiga doir axloqiy mavzudagi suhbatlar deyarli o'tkazilmaydi;

b) juda kam maktablarda sinfdan tashqari ishlar jarayonida axloqiy mavzudagi suhbatlar o'tkazib turilsada, bunda juda katta xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Xususan:

-ko'plab o'qituvchilar axloqiy mavzuda suhbatlar o'tkazish metodikasini bilmaydilar, shu sababli ko'zlangan maqsadga erisha olmayaptilar;

-axloqiy mavzudagi suhbatlar har oyda, ba'zan har ikki oyda bir marta nomigagina, yoxud turli xil sabablar bahonasida o'tkaziladigan hollar ko'p uchraydi;

-bunday suhbatlar ko'pincha quruq nasihatbozlikka aylanib ketmoqda va o'quvchilar shuuriga deyarli ta'sir ko'rsata olmayapti;

-bunday suhbatlarda xalqimizning ma'naviy-axloqiy mavzudagi boy pedagogik merosidan juda kam foydalanilayotir;

v) o'qituvchilar uchun axloqiy mavzuda suhbatlar o'tkazish bo'yicha metodik qo'lanma va tavsiyanomalar deyarli yo'q, borlari ham juda eskirib o'z ahamiyatini yo'qotib qolganligini ta'kidlash joiz.

Axloqiy mavzudagi suhbatlar sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda bir qator afzalliklarga ega. Ilmiy-tadqiqot ishimizning ko'rsatishicha, bular asosan quyidagilardan iborat:

-bunday suhbatlar orqali o'qituvchilar o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladilar. O'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro yaqinlik, keyinroq esa hattoki, sirdosh bo'lish hollari uchraydi;

-boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir o'quvchining individual xususiyatlari-fe'l-atvori, xohish-istak, mayllari, xulqi va odobini o'rganishlari, ba'zi hollarda esa xulqida paydo bo'ladigan salbiy holatlarni bartaraf qilishda axloqiy mavzudagi suhbatlar etakchi rol o'ynaydi;

-o'qituvchilar uchun bunday suhbatlar o'quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ta'sir o'tkazishning muhim shakli bo'lib, shubhasiz o'zining ijobiy natijasini beradi.

Ilmiy-tadqiqot ishimizning ko'rsatishicha, axloqiy mavzudagi suhbatlar asosan ikki xil ko'rinishda-yakka va guruh tartibida o'tkazilib, bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagilarga alohida e'tibor bermog'i lozim:

-har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbat mavzularini o'quv yili boshidayoq tanlab olishi va maktab pedagogik kengashi, sho'ba yig'ilishlarida muhokamadan o'tkazib, boshlang'ich sinflar (ishlari) bo'yicha direktor o'rinbosari tasdig'idan o'tkazishi;

-sinfdan tashqari o'tkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbatlar qat'iy reja va aniq maqsad asosida bo'lishi;

-bunday suhbatlar uchun alohida daftar tutilishi va o'tkaziladigan suhbatlar unga tushirib borilishi;

-axloqiy mavzudagi har bir suhbatda ko'rgazmali qurollardan foydalanilishi, axloqiy tarbiyaga doir asarlardan namunalar keltirilishi;

-axloqiy mavzudagi suhbatlarni ko'proq noan'anaviy tarzda o'tish va bunda munozarali, qiziqarli va erkin bo'lishiga e'tibor berish;

-axloqiy mavzudagi suhbatlarning davom qilish vaqti aniq bo'lishi kerak. Bizningcha boshlang'ich sinflarda yakka tartibda 12-15 minut; guruh tartibida 25-30 minut bo'lishi lozim;

-har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi suhbatdoshining yoshi, bilim darajasi, xulq-atvori, odob-axloqi kabilarni alohida e'tiborga olishi;

-odatda axloqiy mavzudagi suhbatlar o'quvchilarning xohish-istaklarini o'zida ifodalashi, ular uchun bu suhbatlar dolzarb ahamiyat kasb etishini tushuna bilishlari;

-har bir axloqiy suhbat avvalgi mavzuni davomi va to'ldiruvchisi bo'lishi, o'zaro aloqador bo'lishi, osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga qoidalarga alohida e'tibor berish.

Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbatlarning shakllari turli xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

-axloqiy mavzudagi kitoblar tavsiyasiga bag'ishlangan suhbatlar;

-o'quvchilarning ijobiy yoki salbiy xulq-atvori, hatti-harakatlariga bag'ishlangan suhbatlar;

-turli xil tadbir va bayramlarga bag'ishlangan axloqiy mavzudagi suhbatlar;

-buyuk allomalar, qahramonlarning hayoti, faoliyati va fazilatlariga bag'ishlangan suhbatlar

Boshlang'ich sinflarda kitoblar ko'rgazmasini tashkil qilish

Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish oldidan maktab kutubxonachisi tomonidan maktab faesida yoki sinfxonada, bibliotekada kitoblar ko'rgazmasi o'tkaziladi. Bu ko'rgazmaga biz quyidagi kitoblarni shuningdek, toshbosma asarlaridan qilingan tarjimalarning mashinkadan chiqqan namunalarini qo'ydik:

Saidrasul Aziziy «Ustodi avval», Munavvarqori Abdurashidxonov “Adibi soniy”, Muhammadjon ibn Rahimjon “Odobli bola”, Nizomiddin Qori bin Mullo Husayn “Ilmi axloq” asarlarini hozirgi o'zbek yozuviga o'girilgan matnlarini; Abdulla Avloniyning “Toshkent tongi”, “O'son millat”, “Turkiy guliston yoxud axloq”; B.Qosimov, U.Dolimov “Ma'rifat darg'alari”; Sadriddin Ayniy “Qisqacha tarjimai holim” va boshqalar.

Bu asarlardagi yangi usul maktabi tarafdorlarining hayoti, faoliyati hamda axloq-odobga doir hikoya va she'rlar to'g'risida tadbir o'tkazuvchi shaxs va maktabining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi tomonidan qisqacha tavsif berildi. Kutubxonachi o'z navbatida kitob olgan o'quvchilarni kutubxonaga a'zo qilib oldi. Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 32-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazilgan kitoblar ko'rgazmasidan keyingi bir hafta ichida 19 ta boshlang'ich

sinf o'quvchisi kutubxonaga a'zo bo'ldi. O'quvchilar asosan quyidagi kitoblarni olishdi.

Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval», Munavvarqorining “Adibi soniy”, Qori Nizomiddin bin Mullo Husaynning “Ilmi axloq”, Abdulla Avloniyning “O'son millat”, “Toshkent tongi”, B.Qosimov va U.Dolimov “Ma'rifat darg'alari” asarlarini olishdi.

O'quvchilar olgan kitoblarini o'sha sinflarning o'qituvchilari ham yozib va bunga atab alohida daftar tutishdi. Unda asosan quyidagilar o'z aksini topdi. Tartib raqami, ismi va familiyasi, kitob muallifi va kitob nomi, olgan muddati, topshirish vaqti, o'quvchilarga manzur bo'lgan hikoya va she'rlar, ulardan olgan taassurotlari va eslatma. Ko'p yillik tajribalarimiz va kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, kitoblar ko'rgazmasi sinfdan tashqari bo'ladigan har bir tadbirda va albatta o'quvchilar ta'tilga chiqishlari oldidan o'tkazilishi zarur va shart ekan. Bu ishlarni amalga oshirish, kutubxonachi va sinf o'qituvchilari o'rtasidagi aloqalarni mustahkam bo'lishidan faqat o'quvchi yutadi. O'quvchilar hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan holda bo'lishlari ta'minlanadi.

Boshlang'ich sinflarda adabiy ertaliklarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida ertaliklar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etib, maktab o'quvchilarining dunyoqarashiga, axloqiy fazilatlarini shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsata olishi bilan alohida ajralib turadi. Bu ishlarni boshlang'ich sinflardan oq amalga oshirish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarimiz shuni ko'rsatadiki, viloyatimizdagi aksariyat maktablarning boshlang'ich sinflarida ertaliklar o'tkazish juda kam, ba'zi hollarda o'tkazilmas ham ekan. Bu sohada talab va istaklarni o'rganib chiqib, boshlang'ich sinflarda bir necha marta adabiy ertaliklar o'tkazdik. Bizningcha, adabiy ertaliklarni quyidagi tartibda o'tkazish diqqatga sazovor:

- ertalikning mavzusini tanlash va mavzu bo'yicha materiallar to'plash;
- ertalikning dasturini va tafsilotini tuzish;
- ertalikni o'tkazish uchun hay'at a'zolarini tuzish;
- o'quvchilarni tanlab olish va ularga rollarni bo'lib berish;
- ertalik o'tkaziladigan joy va uning jihozi;
- adabiy ertalikni o'tkazish va undan keyin qilinadigan ishlar.

Ertalikning mavzusini tanlash va materiallar to'plash. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ertalikni o'tkazish uchun avvalo mavzu tanlaydi. Bu mavzu bolalar yoshiga, bilim darajasiga mos bo'lishi lozim. Shundan keyin mavzuga oid materiallarni to'plashga kirishadi. Biz yangi usul maktabi tarafdorlarining badiiy asarlaridan foydalanib, adabiy ertaliklar o'tkazish uchun adabiyotlar ro'yxatini tuzdik. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, biz tavsiya qilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, bilim darajasi e'tiborga olingan.

Ertalikning dasturi va tafsiloti. Ertalikning mavzusini tanlab olib, materiallar to'plab bo'lgandan keyin dastur tuzdik. Dastur kirish, asosiy, badiiy, yakuniy qismlardan iborat bo'ldi.

Kirish qismida jadidlar harakatining vujudga kelishi, bu harakatning yirik namoyandalari hayoti, pedagogik faoliyati va darsliklari to'g'risida maktab direktori, direktorning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari yoki boshlang'ich sinf o'qituvchisi qisqacha nutq so'zlaydi.

Asosiy qismda ertalikni o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsad, mazmuni yoritiladi.

Badiiy qismda axloqiy tushunchalar, axloqiy hislarni shakllantirish to'g'risidagi fikrlar she'rlar, qo'shiqlar orqali mustahkamlanadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini, ruhiy holatlarini inobatga olib, maroqli dam olishlari uchun o'zbek xalq kuylari va qo'shiqlariga o'yinlar sahnalashtiriladi.

Yakuniy qismda ertalikka atab tayyorlab kelingan ko'rgazmali qurollar, devoriy gazetalarga baho qo'yiladi. Unda qatnashgan ikki-uch o'quvchining fikrlari so'raladi va faol ishtirok qilgan bir guruh o'qituvchi va o'quvchilarga esdalik sovg'alari topshiriladi.

Dastur asosida **sstenariy** tuziladi. Ssenariy bir necha turda tuzilishi mumkin: -bir sinf uchun (1-"A"); -bir yoshdagi parallel sinflar uchun (2-"A", 2-"B", 2-"V"); -ikki yoki undan ortiq boshlang'ich sinflar uchun (1-"A", 2-"V", 4-"A"), (4-"A", 3-"B").

Bunda sstenariy tuzuvchi maktabdagi boshlang'ich sinflar sonini inobatga olishi lozim.

Ertalikni o'tkazuvchi hay'at a'zolarini tanlash. Ertalikni o'tkazish maktabning yillik rejasiga kiritilishi, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchisining tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish yillik rejaga kiritilishi va maktab pedagogika kengashining qaroriga ko'ra tadbir bo'ladigan oy, kun, tadbirni bajaruvchilar va ularning vazifalari aniq ko'rsatilishi kerak. Biz Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani 6-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Yaxshi xulqli bola bo'lamiz" deb nomlangan ertalikni o'tkazish uchun maktab pedagogika kengashining qaroriga binoan hay'at a'zolarini tuzdik.

Ertalikni o'tkazish uchun tanlab olingan hay'at a'zolari:

Fayziev X.- 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori, hay'at raisi, Olimov A.-maktab direktorining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha o'rinbosari, kotib. Sohbov T.-boshlang'ich sinflar bo'yicha ilmiy bo'lim mudiri Hamroev Sh.- ertalikning tashkilotchisi, dastur va sstenariy muallifi. To'raev T.-maktab musiqa o'qituvchisi, "Yosh ijrochilar" to'garagi rahbari. Jo'raev U.-maktabning tasviriy san'at va fanlari o'qituvchisi ertalikka tayyorlanadigan ko'rgazmali qurollar bo'yicha mas'ul shaxs. Hayitov R.-boshlang'ich sinf o'qituvchisi, ertalikni olib boruvchi.

O'quvchilarni tanlash va rollarni bo'lib berish. Ssenariyni tuzib bo'lgach, adabiy ertalikda qatnashuvchi o'quvchilar tanlab olinadi. Iloji boricha ko'proq o'quvchilarni jalb qilmoq lozim. Shuningdek, o'quvchilarni ko'rgazmali qurollar va devoriy gazetalarni chiqarishga ham jalb etish maqsadga muvofiqdir. Ertalikni

o'tkazishga tayyorgarlikni quyidagi tartibda olib borish o'zining yaxshi samarasini beradi:

- o'quvchilarga rollarni 25-30 kun avval bo'lib berish;
- ko'rgazmali qurollar va devoriy gazetalar tayyorlashga (boshlang'ich sinf o'qituvchisi va tasviriyl san'at o'qituvchisi yordamida) 20-25 kun avvalroq kirishish lozim;
- musiqiy tayyorgarlikni (maktab musiqa o'qituvchisi va musiqa to'garagi rahbari yordamida) 15-20 kun oldin boshlash kerak.

Boshlang'ich sinflarda ertaliklar **o'tkazish vaqtini** quyidagicha belgilash lozim:

1-sinfda jami 35-45 minut vaqt ajratish. Bundan kirish qismiga 5-7 minut, asosiy qism uchun 10-12 minut; badiiy qism uchun 15-19 minut; yakuniy qismga 5-7 minut;

2-sinflarda ertalikni 45-55 minut davomida o'tkazish: kirish qismiga 7-9 minut; asosiy qismga 12-15 minut; badiiy qismga 18-20 minut va yakuniy qismga 8-10 minut vaqt ajratish;

3-sinfda ertalik o'tkazish vaqti o'rtacha 60-75 minut bo'lishi mumkin. Bunda kirish qismiga 9-13 minut; asosiy va badiiy qismlarga bir xil 20-25 minutdan va yakuniy qismga 10 minut vaqt belgilash;

4-sinflarda esa 65-80 minut davomida o'tkazish; kirish qismini 10-15 minut; asosiy qismni 25-30 minut; badiiy qismni 22-25 minut; yakuniy qismni esa 10 minut qilib belgilash.

Ertalik o'tkaziladigan joy va uning jihozi: O'zbekiston sharoitida tadbirlarni kuz va bahor fasllarida tabiat qo'ynida, qish faslida esa maktab klubida o'tkazgan ma'qul. Maktab klubida tadbir o'tkazilayotganda sahnaning orqa tarafida O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i va gerbi tushirilgan stend, ikki yon tarafda esa yangi usul maktabi tarafdorlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlarning rasmlari, o'quvchilar va o'qituvchilar hamkorligida ertalikka atab tayyorlangan ko'rgazmali qurollar, devoriy gazetalar, axloq-odobga oid xalq maqollari, hadisdan namunalar yozilgan plakatlar ilib qo'yilishi kerak.

Ertalikni o'tkazish va undan keyin qilinadigan ishlar: maktab ma'muriyatining roziligiga va tavsiyasiga ko'ra, ertalikning vaqtini belgilash ayni muddao bo'ladi. Ertalikni o'tkazish yuqorida ko'rsatilgan vaqt bo'yicha davom etishi yaxshi natija beradi. Ertalikni o'tkazish vaqti va undan keyin quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- adabiy ertalik o'tkazayotgan vaqtda suratchi chaqirish va u bo'layotgan voqealarni maqsadga muvofiq suratga olishi;
- rasmlarni olgach, adabiy ertalik haqida devoriy gazeta, stend va albom tayyorlash;
- adabiy ertalikning dasturini, tafsilotini va so'zlangan nutqlarni "Tadbirlar" deb nomlangan papkaga tikib qo'yiladi.

I-IV sinflarda kitobxonlik anjumanlarini o'tkazish

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning muhim shakllaridan biri-kitobxonlik konferensiyalarini o'tkazish hisoblanadi. Bizningcha, maktablarning boshlang'ich sinflarida kitobxonlik konferensiyalarini o'tkazish jarayonida bir qator xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda:

- ba'zi maktablarning boshlang'ich sinflarida kitobxonlik konferensiyalari ikki-uch yilda bir marta o'tkazilgan hollar uchramoqda;

- aksariyat o'rta maktablarda kitobxonlik konferensiyalari juda kam, ba'zi hollarda esa, turli sabablar bahonasida nomigagina o'tkazilmoqda;

- ko'plab o'qituvchilar, chunonchi, boshlang'ich sinf o'qituvchilari kitobxonlik konferensiyalarini o'tkazish metodikasini deyarli bilmaydilar. Shu sababli, nomigagina o'tkazilayotgan bunday konferensiyalar orqali ko'zda tutilgan maqsadga erishilmayapti. Ko'p hollarda esa kitobxonlik konferensiyalari juda zerikarli o'tmoqda;

- boshlang'ich sinflarda kitobxonlik konferensiyasi o'tkazish bo'yicha metodik qo'llanma va tavsiyalar yo'q hisobi, borlari ham eski, hozirgi zamon talablariga javob bera olmaydi.

Biz tajriba-sinov ishi davomida bir qator umumiy o'rta ta'lim maktablarida kitobxonlik konferensiyalarini o'tkazdik. Bunda, shubhasiz ilmiy-tadqiqotning maqsad-vazifalaridan hamda o'ziga xos boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib yangi usul maktabi tarafdorlarining axloqiy tarbiyaga doir pedagogik asarlaridan asosiy vosita sifatida foydalandik.

Kitobxonlik konferensiyalari o'tkazishdan quyidagi maqsadlarni ko'zlagan edik:

1. O'quvchilarni mustaqil mutolaa qilishga odatlantirish, kitobga mehr uyg'otish.

2. Jadid ma'rifatparvarlarining hayoti, faoliyati, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir badiiy matnlar bilan tanishtirish va bu orqali o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning samarali shakl-usullari, yo'llarini ishlab chiqish.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda yangi usul maktabi tarafdorlarining axloqiy tarbiyaga doir pedagogik asarlarining tarbiyaviy ta'sirini o'rganish.

4. Yangi usul maktabi tarafdorlarining axloqiy tarbiyaga doir she'r va hikoyalaridagi yaxshi xulqlardan, ijobiy fazilatlardan o'rnak olishga va yomon xulqli kishilardan uzoqroq yurishga, nafratlanishga odatlantirish.

5. Yaxshi va yomon xulqlarni, odat va fazilatlarni farqlay olishni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishni nazarda tutgan edik.

Tajriba-sinov ishlarining ko'rsatishicha, kitobxonlik konferensiyasi o'tkazishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1. Kitobxonlik konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish.
2. Konferensiyani o'tkazish. (konferensiyani tayyorlash va o'tkazish rejasi).
3. Konferensiyadan keyin qilinadigan ishlar.

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkaziladigan "Ma'rifatparvarlar-yaxshilikka chorlaydilar" mavzusidagi kitobxonlik konferensiyasini tayyorlash va o'tkazish bo'yicha reja:

T/n	Bajariladigan ishlar	Bajarish vaqti	Bajaruvchi
1	2	3	4
1	O'quvchilar mutolaasini o'rganish va unga rahbarlik qilish		Boshlang'ich sinf o'qituvchilari
2	Kitobxonlik konferensiyalari o'tkaziladigan sinflarda suhbatlar o'tkazish		Maktab direktorining "Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha o'rinbosari
3	Kitobxonlik haftaligini o'tkazish		Maktab direktiyasi
4	Kitoblar ko'rgazmasini tashkil qilish		Maktab kutubxonachisi
5	Kitobxonlik konferensiyasiga maktab badiiy havaskorlik a'zolarini tayyorlash		"Yosh ijrochilar" to'garagi a'zolari va boshlang'ich sinf o'quvchilari
6	Konferensiyaga bag'ishlab devoriy gazetalar chiqarish va tadbir bo'ladigan joyni jihozlash		"Yosh rassomlar" to'garagi a'zolari va boshlang'ich sinf o'quvchilari
7	Kitobxonlik konferensiyasiga mehmonlarni taklif qilish		Maktab ma'muriyati
8	Konferensiya o'tkazilgandan keyin stendlar va albomlar tayyorlash		Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari
9	Kitobxonlik konferensiyasida faol ishtirok qilgan o'qituvchi va o'quvchilarni rag'batlantirish va mukofotlash		Tuman xalq ta'limi bo'limi, maktab ma'muriyati va homiy tashkilotlar, ota-onalar qo'mitasi

Kitobxonlik konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish. Konferensiya o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsadga erishish unga qay darajada tayyorgarlik ko'rilganligiga bog'liq. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

- maktab pedagogik kengashida kitobxonlik konferensiyasi o'tkazish uchun hay'at a'zolarini tasdiqlash;
- Kitobxonlik konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish uchun tayinlangan hay'at a'zolari:

biz Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Ma'rifatparvarlar-yaxshilikka chorlaydilar" mavzusida kitobxonlik konferensiyasini o'tkazdik. Bu konferensiyani tayyorlash va o'tkazish uchun maktab pedagogika kengashining majlisida 11 kishidan iborat hay'at a'zolari

tayinlandi: Tursunov F-maktab direktorining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha o'rinbosari, hay'at raisi, Beknazarov X-maktab direktorining boshlang'ich sinf ishlari bo'yicha o'rinbosari, hay'at raisining o'rinbosari. Panjjeva O-maktab kutubxonachisi, Orziqulov X- maktab badiiy havaskorlik to'garagi rahbari, Orziev B-maktab san'at va chizmachilik fanlari o'qituvchisi, "Yosh rassmolar" to'garagi rahbari, Hamroev Sh-Qarshi Davlat universiteti aspiranti, Tursunov B. maktab ota-onalar qo'mitasi raisi, Jalolova M, Cho'lieva N, Yangieva Z.-boshlang'ich sinf o'qituvchilari. Bu reja maktab yillik va oylik ish rejasiga kiritildi.

- o'quvchilar mutolaasini o'rganish va unga rahbarlik qilish;
- konferensiyani tayyorlaydigan sinflarda suhbatlar o'tkazish;
- kitobxonlik haftaligini o'tkazish;
- kitoblar ko'rgazmasini tashkil qilish;
- kitobxonlik konferensiyasiga maktab badiiy havaskorlik to'garagi a'zolarini tayyorlash;
- konferensiyaga bag'ishlab devoriy gazetalar chiqarish va tadbir bo'ladigan joyni jihozlash;
- konferensiyaga mehmonlarni taklif qilish.

Kitobxonlik konferensiyasini o'tkazish metodikasi:

Kitobxonlik konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish uchun hay'at a'zolarini saylash:

Biz Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Ma'rifatparvarlar-yaxshilikka chorlaydilar" mavzusida kitobxonlik konferensiyasini o'tkazdik. Bu konferensiyani tayyorlash va o'tkazish uchun maktab pedagogika kengashining Majlisida 11 kishidan iborat hay'at a'zolari saylandi va reja tuzildi.

O'quvchilar mutolaasini o'rganish va rahbarlik qilish:

Mutolaaga rahbarlik qilish, kitobga mehr-muhabbat uyg'oitish, mutolaaga nisbatan qiziqish va ehtiyoj hissi namoyish etish demakdir. O'quvchilar mutolaasiga rahbarlik qilishning pedagogik jarayoni o'qituvchilardan har bir o'quvchi shaxsiyatining o'ziga xosligini, tushunishini, uning nimaga qiziqishini, talablarini, mayl va havaslarini, kitobga munosabatini, kitobxon sifatida nimalarga intilishini, mutolaa madaniyat darajasini, atrof-muhit, oila, maktab, jamoatchilik bilan munosabatlarini o'rganishni talab etadi. O'qituvchi sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilar bilan ko'plab mutolaa haqida suhbatlar o'tkazib turishi lozim. Bu suhbatlar orqali o'quvchilarni mutolaasini to'g'ri yo'naltira olmog'i, shakllantirmog'i kerak. Kitobxonni o'rganar ekan o'qituvchi bir vaqtning o'zida uning qiziqishlarini o'stiradi va ularni bir maqsadga yo'naltira oladi, bir vaqtning o'zida uning mutolaasiga rahbarlik qila oladi. O'quvchilarni, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mutolaasiga rahbarlik qilishning hozirgi ahvoli qoniqarli deb ayta olmaymiz. Bizningcha, bunga asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

A) ko'plab o'qituvchilar o'quvchilarini, chunonchi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini, sinfdan tashqari kutubxona, shaxsiy kitob egalaridan yoxud kitob do'konlaridan olib o'qiyotgan kitoblariga umuman e'tibor bermaydilar, bunga qiziqmaydilar;

B) ba'zi kutubxonachilar o'quvchilarga xizmat ko'rsatish jarayonida ularning individual xususiyatlariga ko'pam e'tibor bermaydilar, differentsial yondoshmaydilar;

V) ko'plab o'qituvchilar o'quvchilarini mutolaasiga rahbarlik qilish metodikasini deyarli bilmaydilar.

Olib borgan tadqiqot ishimizning ko'rsatishicha o'quvchilarning mutolaasiga rahbarlik qilishni yaxshilash va takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish juda zarur:

1. Har bir o'qituvchi, chunonchi, boshlang'ich sinf o'qituvchilari muntazam va qat'iy reja asosida o'quvchilarning mutolaalarini o'rganib borishi, bu asosda suhbatlar o'tkazib, maqsadga muvofiq amaliy maslahatlar berishi lozim.

2. O'quvchilarni mutolaasiga yakka tartibda rahbarlik qilishga ko'proq e'tibor berish, kitob tavsiya etish bo'yicha yakka tartibda suhbatlar o'tkazish, o'qilgan kitob haqida suhbatlar o'tkazish, o'quvchilarda mutolaa madaniyatini tarkib toptirish va rivojlantirish, o'quvchilar mutolaasining rejasini tuzish va boshqa masalalar bo'yicha suhbat va maslahatlashuvlarni tez-tez qat'iy reja va aniq maqsadlar asosida tashkil etishlari lozim.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ko'proq rasmlı, sodda, kichik yoshdagi bolalar uchun chiqarilgan ular yoshiga mos asarlarni tavsiya etish kerak.

4. Mutolaa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida bir qator tadbirlar: "Men o'qigan kitob", "Odobli bola qanday bo'ladi?", "Saidrasul Aziziy yaxshi va yomon xulqli bolalar haqida", "Qori Nizomiddinning "Ilmi ahloq" asari-axloqiy tarbiyaga doir muhim manba» kabi mavzularda suhbatlar, "Yaxshi xulqli bola bo'lamiz", "Odatim-oftobim" mavzusida ertaliklar, "Ma'rifatparvarlar axloqli, odobli bolalar haqida", "Odobli bola" asari haqida nima bilamiz?" mavzusida viktorinalar o'tkazib turilishi, bu tadbirlar o'zining aniq maqsadiga ega bo'lmog'i, bolalarni kitobga mehr-muhabbatini paydo qilmog'i, shaxsni har tomonlama rivojlanishida asos bo'lmog'i, boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy ruhda tarbiyalashga ko'mak bermog'i lozim.

E'lon va devoriy gazetalar chiqarish: kitobxonlik konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish hay'ati tuziladi. Biz o'tkazgan tadbirlarda maktabda tasviriy san'at, chizmachilik fanlari o'qituvchisi "Yosh rassomlar" to'garagi a'zolari, sinf redkollegiya a'zolari topshirilgan aniq maqsad asosida ish olib bordilar. Shunday konferensiyalardan biri Mirishkor tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lib o'tdi. Konferensiyadan bir oy oldin e'lon chiqarilib, unda kitobxonlik konferensiyasining mavzusi, konferensiyada ma'ruza mavzulari, konferensiyada qatnashuvchi sinflar, konferensiya bo'ladigan vaqt va joy ko'rsatib berildi.

Shu bilan birga kitobxonlik konferensiyasiga bag'ishlab devoriy gazetalar chiqarildi. Bu gazetalardan namuna keltirib o'tamiz: gazeta sarlavhasi "Kitobxonlik konferensiyasiga tayyorlaning", gazetada yangi usul maktabi tarafdorlarining rasmlari, darsliklari, ba'zi nashr qilingan darsliklarning muqovalarining rasmi berildi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, kitobxonlik konferensiyasiga bag'ishlab chiqarilgan devoriy gazetalarda kitob muqovasidagi suratlar, yangi usul maktabi tarafdorlarining rasmlari, konferensiyada so'zga

chiquvchilar uchun mavzular, ma'rifatparvarlar haqida biografik ma'lumotlar joy olgan bo'lishi kerak. Bizningcha, "Ma'rifatparvarlarning axloqiy merosini o'rganamiz", "Odob-inson ziynati", "Axloq bo'stoni, odob gulistoni" nomlarida devoriy gazetalar chiqarish mumkin. Konferensiyaga bag'ishlab chiqarilgan e'lon va devoriy gazetalarda yozilgan harflar jimjimadorlikdan holi tarzda, oddiy, aniq yozilmog'i diqqatga sazovor deb o'ylaymiz.

Suhbatlar o'tkazish: maktab pedagogika kengashining qaroriga ko'ra, kitobxonlik konferensiyasining mavzusi, maqsadi, vaqti, joyi va unda qatnashuvchi sinflar aniq ko'rsatilmog'i kerak. Shundan keyin har bir sinf rahbari o'quvchilarga kitobxonlik konferensiyasi haqida tushuncha, unga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish, konferensiyada ko'riladigan masalalar berilgan ma'ruzalarga tayyorgarlik ko'rish yo'llarini to'g'ri ko'rsatib berishi kerak. O'quvchilar bilan kitob mutolaasi va muhokamasi, kitob haftaligi, kitobxonlik konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish va boshqa ishlar jarayonida muntazam, aniq maqsad va reja asosida ish olib borishlari diqqatga sazovordir. Odatda suhbatlar ikki xilda olib boriladi: a) individual; b) jamoa bilan o'tkaziladigan suhbatlar. Bizningcha, o'qituvchi o'quvchilar bilan yangi o'qiladigan kitoblar haqida suhbat o'tkazishda, suhbatning mohiyati, o'quvchining shaxsiy xususiyatlariga, uning tayyorgarligiga, yoshiga, mutolaa maqsadiga, tavsiya etilayotgan kitobning mazmuniga va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Kitob haftaligini o'tkazish: aksariyat o'rta maktablarda kitob haftaligini o'tkazish odat tusiga kirib qolgan. Odatda bunday haftalik-24 dan 31-martagacha, ya'ni o'quvchilarning bahorgi ta'til payti o'tkazilmoqda. Bizningcha bunday haftaliklarni kuzgi ta'til va qishki ta'til paytida ham o'tkazish mumkin. Ko'pgina maktablarda haftalikda: ertaliklar, bolalar shoir va yozuvchilari bilan uchrashuvlar, karnavallar, kitoblar ko'rgazmalari o'tkazib turiladi. Bu haftalikda barcha yoshdagi bolalar bilan ish olib boriladi. Biz ilmiy tadqiqot ishining xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilarni kitobxonlik konferensiyasiga puxta tayyorlash maqsadida kitoblar ko'rgazmasini tayyorlashga harakat qildik. Ko'rgazmani ko'pincha maktab kutubxonachisi maktab o'qituvchilari bilan hamkorlikda o'tkazadilar. Ko'rgazmadan ko'zda tutilgan maqsadga qarab ular turli mavzularga bag'ishlangan bo'ladi:

- bayramlar va yubiley sanalariga bag'ishlangan kitob ko'rgazmalari: 1-sentabr-Mustaqillik kuni, 1-yanvar-Yangi yil bayrami, 8-mart-Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart-Navro'z bayrami, "Bolalar shoiri Anvar Obidjon 50 yoshda», «Xudoyberdi To'xtaboev – 60 yoshda» va boshqalar;

- maktab dasturiga yordam tarzidagi kitob ko'rgazmalari "Ma'rifatparvarlar bolalarni axloqiy tarbiyalash haqida", "Sening darsliging sahifalarida", "Ajdodlarimiz-faxrimiz" va boshqalar;

- ayrim yozuvchi va shoirlar ijodiga bag'ishlangan kitob ko'rgazmalari: "Saidrasul Aziziy-yaxshi va yomon bolalar haqida", Qori Nizomiddin axloq ilmi haqida", "Abdulla Avloniyning axloqiy darsliklari" va boshqalar;

- xalqaro, ichki hayotdagi voqea va hodisalar haqida: "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat", "O'zbekiston tinchlik tarafdori" va boshqalar.

Kitobxonlik ko'rgazmasiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida mavzu tanlash, maqsad va qatnashuvchi sinflarni aniqlangach, harakat rejasini tuzish va kitoblarni sistemali katalogi, bibliografik qo'llanmalardan foydalaniladi. Kitoblarni maqsadga muvofiq saralab bo'lingach, kutubxonachi va sinf o'qituvchilari bu kitoblar bilan tanishadilar va o'zaro maslahatlashib keraklilarni tanlab oladilar. Bunda, shubhasiz, kitoblarning badiiy jihatdan yuksak, qiziqarli, ayniqsa xalqimizning ma'naviy-ruhiy olamiga va milliy o'ziga xos xususiyatlariga mos keladiganlarinigina tanlab olinadi. Kitoblar mazmuni bolalarning yoshiga, individual xususiyatlariga mos kelishi kerak. Bizningcha boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun 7-8- ta nomdagi kitob tanlab olinishi diqqatga sazovor. Yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir merosiga bag'ishlab boshlang'ich sinflarda kitobxonlik konferensiyalarini o'tkazishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelinadi. Chunki, yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik merosi arab yozuvi asosidagi alifbo bo'lib, krill alifbosi asosidagi o'zbek yozuviga ma'lum miqdorda bo'lsada, asosan respublikamiz mustaqilligidan keyin, kitoblar, maqolalar, risolalar chop etildi. Lekin lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvida hali bunday asarlar kam nashr qilingan. Biz Mirishkor tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazgan kitobxonlik haftaligida quyidagi asarlarni qo'ydik: Abdulla Avloniy "Toshkent tongi", Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq", shuningdek, Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval» asarining 1906 yilgi nashridan lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuviga o'girilgan matnlardan namunalarni, Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi soniy" darsligining 1912 yilgi nashridan lotin yozuviga o'girilgan matnlarni, Qori Nizomiddin bir Mullo Husaynning "Ilmi axloq" hamda Muhammadjon ibn Rahimjonning "Odobli o'g'lon" asarlarini arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvidan lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuviga o'girdik va matnlardan namunalarni ko'rgazmaga qo'ydik. Bu matnlar o'quvchilarga juda qo'l keldi. O'quvchilarning aksariyat qismi bu matnlardan foydalandilar.

Maktab havaskorlik to'garagini konferensiyaga tayyorlash: bizning fikrimizcha, o'rta maktabda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan har qanday tarbiyaviy tadbir badiiy havaskorlik to'garagi a'zolari qatnashuvsiz o'tmasligi lozim. Bizningcha, kitobxonlik konferensiyasi o'tkazishda: 1-2 raqs sahnalashtirilishi, 2-3 qo'shiq kuylanishi, shuningdek, qiziqarli o'yinlar, jismoniy mashqlardan namunalar ko'rsatilishi, shubhasiz o'zining ijobiy natijalarini beradi. Kitobxonlik konferensiyasiga maktab badiiy havaskorlik to'garagini 15-17 kun avvaldan tayyorlay boshlash lozim. Konferensiyaga badiiy havaskorlik to'garagi a'zolarini tayyorlash jarayonida to'garak rahbari quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi kerak:

- konferensiyaga bag'ishlab tayyorlanadigan o'yin, qo'shiq, she'r, yoxud raqs tadbir ruhiga, mavzusiga va maqsadiga mos holda, monand bo'lishi, bilidriladigan fikrlarni to'ldira borishi lozim;

- maktab badiiy havaskorlik to'garagi tomonidan konferensiyaga bag'ishlab tayyorlanadigan har qanday ko'rinish konferensiya qatnashuvchilarning yoshiga, bilim darajasi, dunyoqarashiga mos kelishi, ko'proq xalqimizning o'ziga xos ma'naviy-axloqiy merosidan chunonchi, yangi usul maktabi tarafdorlarining

axloqiy tarbiyaga doir pedagogik merosidan muhim vosita sifatida foydalanishi, shubhasiz, o'zining ijobiy natijalarini beradi;

- kitobxonlik konferensiyasida turli xil o'yinlar, tez aytish, maqollar va hikmatli so'zlardan ko'proq aytish musobaqalari uyushtirish tadbirining jonli, qiziqarli o'tishida, erkin fikr almashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbir o'tkaziladigan joyni jihozlash: har bir tadbirda bo'lgani kabi, kitobxonlik konferensiyasi bo'ladigan joyni jihozlashga, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda juda katta e'tibor bermoq lozim. Bu ishni amalga oshirishda maktab tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi boshchiligidagi "Yosh rassomlar" to'garagi a'zolari, tadbir o'tkaziladigan sinflardagi redkollegiya a'zolari jonbozlik ko'rsatishlari kerak. Shuningdek, ular bu ishga keng o'quvchilar jamoasini jalb qilishlari diqqatga sazovor. Biz kitobxonlik konferensiyasi bo'ladigan joyni jihozlashda ilmiy-tadqiqot ishining xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi ishlarni amalga oshirdik:

1. Kitobxonlik konferensiyasi bo'ladigan kundan 14-15 kun avval maktab "E'lonlar doskasi"da tadbirga bag'ishlab tayyorlangan devoriy gazetalar ko'rigini e'lon qildik.

2. "Yosh rassomlar" to'garagi a'zolari konferensiyaga mavzu va maqsadga muvofiq to'garak rahbari yordamida yangi usul maktabi tarafdorlari Abdulla Avloniy, Saidrasul Aziziy, Munavvarqori Abdurashidxonovning rasmlarini chizishlari, ularning asarlaridagi ibratli so'zlaridan namunalarni shior yoxud gazetalarga oq, ko'k rangdagi materiallarga yozib tadbir o'tkaziladigan joyga ilib qo'yildi.

3. Kitobxonlik konferensiyasi maktab kutubxonasi, o'quv zali, ayniqsa, maktab ma'naviyat va ma'rifat markazi xonasida o'tkazish diqqatga sazovor bo'lib, sahnaning to'rida O'zbekiston Respublikasining bayrog'i, gerbi tushirilgan stend bo'lishi, zalning o'ng va so'l tomonlarini: o'quvchilarning konferensiyaga bag'ishlab chizgan devoriy gazetolari, yangi usul maktabi tarafdorlarining rasmlari, O'zbekistonning mustaqilligini, tarixini aks ettirgan plakatlar bilan jihozladik.

Bizningcha, har qanday tarbiyaviy tadbir mustaqil diyorimizning davlat madhiyasi sadolari bilan boshlanishi kerak. Konferensiya bo'ladigan joyni jihozlashda maktab hayotiga oid lavhalar, "Yosh rassomlar" ijodidan namunalar, yosh shoir va yozuvchilarning ijodlaridan namunalar berilgan devoriy gazetalar chiqarish, shubhasiz, o'zining ijobiy natijalarini beradi. Har bir tadbirda bo'lgani kabi kitobxonlik konferensiyasi o'tkazishda ham tadbir bo'ladigan joyni jihozlashga juda katta e'tibor berish kerak.

Kitobxonlik konferensiyaga mehmonlarni taklif qilish: o'rta maktabda o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy tadbirlarga mehmonlarni taklif qilish odat tusiga kirgan. Bir necha yillar davomida olib borgan kuzatishlarimiz, ilmiy-tadqiqot ishlarimizning ko'rsatishicha kitobxonlik konferensiyalariga:

- kitobxonlik konferensiyasi o'tkazayotgan sinf o'quvchilarining otalarini tadbirga taklif etish kerak;

- bunday tadbirga shoir, yozuvchi va olimlarimizni, ilg'or ishchi, mirishkor dehqonlarimizni taklif qilish lozim;

- tuman hokimligi, ma'naviyat va ma'rifat markazi, tuman madaniyat bo'limi hamda, maktabni otaliqqa olgan tashkilotlardan vakillarni «Vasiylar kengashi» a'zolarini taklif qilish diqqatga sazovor;

- boshlang'ich sinflarda o'tkazilayotgan tadbirlarga albatta suratkashni va videochini taklif qilib, maqsadga muvofiq suratga va videotasmaga oldirish juda muhimdir;

- kitobxonlik konferensiyasining ham barcha tadbirlardagi kabi asosiy mehmonlari bu-boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'qituvchilari hisoblanib, ularni iloji boricha ko'proq tadbirlarga taklif qilish kerak.

Kitobxonlik konferensiyalarining tuzilishi va o'tkazish vaqti.

Kitobxonlik konferensiyasi sinfdan tashqari o'tkaziladigan boshqa tadbirlardan tubdan farq qilib, bizningcha bunga asosan quyidagilarga alohida e'tibor berishi lozim.

- 1.Kitobxonlik konferensiyasining tuzilishi va tarkibiy qismlari.

- 2.Kitobxonlik konferensiyasining davom qilish vaqti.

Kitobxonlik konferensiyasining tuzilishi. Qiziqarli, munozaraga boy, belgilangan maqsadga erishishda kitobxonlik konferensiyasining tuzilishi va tarkibiy qismlarini to'g'ri tanlay bilish juda muhim bo'lib, bizningcha, bunda:

- kirish;
- o'quvchilarning so'zga chiqishlari va munozara;
- viktorina;
- badiiy qism;
- xotima kabilarga jiddiy yondoshish kerak.

Kirish qismida: kitobxonlik konferensiyasining o'tkazish tashabbuskori bo'lgan shaxs yoxud tadbirga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish hay'atining raisi, qisqa, sodda va aniq ma'ruza qilib, konferensiyani ochiq deb aytadi;

- konferensiyani o'tkazishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadni, konferensiyada ko'riladigan masalalarga qisqacha sharh beradi; konferensiyada qatnashuvchi sinflarni va konferensiya shartlarini tushuntiradi; konferensiyaga bag'ishlab tayyorlab kelingan devoriy gazetalarga baho beruvchi hakamlar hay'atini tanishtirib o'tadi.

Munozara- kitobxonlik konferensiyasining asosiy qismi bo'lib, unda tadbirdan ko'zda tutilgan maqsad to'la yoritib beriladi. O'quvchilar ma'ruza qiladilar. Ma'ruzalar bo'yicha munozaralar bo'ladi. Ma'ruza va munozaralarni jonli, qiziqarli, foydali o'tishida quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

- tadbir bo'ladigan auditoriyada erkin muhit yaratilishi;
- ma'ruza uchun berilgan mavzular konferensiyadagi barcha qatnashuvchilarga dolzarb bo'lishi;

– munozaraga ko'proq boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, qo'shiq, raqs, ifodali she'r o'qish, qiziqarli o'yinlar navbatma-navbat ijro qilinishi;

– tadbir bo'layotgan auditoriyada tartib-intizom buzilib ketishga yo'l qo'ymaslik;

– boshlang'ich sinflarda har bir ma'ruza uchun 9-12 minut, munozara uchun esa 3-5 minut vaqt ajratish diqqatga sazovor.

Qiziqarli savol-javob o'yini (viktorinalar) – kitobxonlar konferensiyasida qiziqarli savol-javob o'yinlari o'tkazish juda muhim bo'lib, bunda savollar 6-7 tadan qilib tuzilishi, bu savollar tadbir bo'ladigan bolalar yoshi, individual xususiyatlari, bilim darajalariga mos bo'lishi kerak. Qiziqarli savol-javob o'yinida asar qahramonlarining kiyimlari, so'zlaridan namunalari, she'rlardan parchalar tanlab olinib, ularga javoblar berishni so'rash yaxshi natija beradi.

Badiiy qism – bu qismda o'quvchilar tayyorlab kelgan she'r, qo'shiq, har xil o'yinlar hamda sahnalashtirilgan ko'rinishlar namoyish qilinadi. Boshlang'ich sinflarda sodda, sho'x qo'shiq va she'rlarni tayyorlash kerak. Bunda she'rlar tadbir ruhiga mos kelishi kerak.

Xotima – kitobxonlik konferensiyasining oxiri xulosalovchi qism bo'lib, bunda o'quvchilar, o'qituvchilar hamda mehmonlar bo'lib o'tgan tadbir haqida o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar. Homiy tashkilotlar esa esdalik va qimmatbaho sovg'alarini topshiradilar.

Kitobxonlik konferensiyasining davom qilish vaqti– kitobxonlik konferensiyasining mazmunli o'tishida anjumanning davom qilish vaqtini to'g'ri belgilash juda muhimdir. Bizningcha, boshlang'ich sinflarda kitobxonlik konferensiyasi 55-70-minut davom qilishi diqqatga sazovor. Bunda: kirish qismiga 3-5 minut, munozara qismiga 10-12 minut, badiiy qismiga 12-15 minut va nihoyat xotima qismiga 3-5 minut vaqt ajratish o'zining ijobiy natijalarini beradi. Yuqori sinflarda esa kitobxonlik konferensiyalari 75-90 minutgacha davom qilishi mumkin.

Kitobxonlik konferensiyasidan keyingi ishlar. Olib borgan kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, aksariyat o'rta maktablarda kitobxonlik konferensiyasi tugagandan keyin hech qanday ish qilinmaydi. Bizningcha bunga aslo yo'l qo'ymaslik kerak. Kitobxonlik konferensiyasi bo'lib o'tgandan so'ng quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

a) kitobxonlik konferensiyasi bo'lib o'tgunga qadar, tadbirdan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq anketa savollarini tuzib, o'quvchilarning bilim va tarbiyalanganlik darajalarini o'rganish, tadbir bo'lib o'tgandan so'ng ham anketa savollariga javoblar olish va oradagi farqni tahlil qilish kerak. Bu asosda metodik qo'llanmalar yoxud tavsiyanomalar yozish mumkin;

b) kitobxonlik konferensiyasi haqida gazeta va jurnallarga maqolalar berish, ishni ommaviylashtirish alohida tahsinga sazovor;

v) tadbirga bag'ishlab stendlar, devoriy gazetalar chiqarish, albom tayyorlash maqsadga muvofiq;

g) konferensiyada qilingan ma'ruzalar hamda munozarada bildirilgan fikrlarni alohida-alohida jamlab, maktabning "Tarbiyaviy tadbirlar" papkasiga tikib qo'yish kerak;

d) konferensiyada faol ishtirok qilgan, eng ko'p kitob o'qigan o'quvchilarning rasmlarini "Bizning kitobxonlarimiz" doskasiga chiqarish hamda ota-onalariga tashakkurnomalar izhor qilish, shubhasiz muhim ishdir.

Boshlang'ich sinflarda yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik asarlariga bag'ishlab o'tkazilgan konferensiyadan keyin quyidagi xulosalarga keldik:

- kitobxonlik konferensiyalarining o'tkazilishi o'quvchilarda kitobga bo'lgan mehr-muhabbatni, mutolaa qilish madaniyatini shakllantirishga katta hissa qo'shdi;

- ilmiy-tadqiqot ishimizning xususiyatlaridan kelib chiqib o'tkazgan kitobxonlik konferensiyalar natijasida, o'quvchilarda yangi usul maktabi tarafdorlarining hayoti, faoliyati, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir pedagogik asarlari haqida chuqur bilimlar hosil bo'ldi;

- jadid ma'rifatparvarlarining axloqiy tarbiyaga doir asarlari kitobxonlik konferensiyasini o'tkazishda asosiy manba qilib olinganligi boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyasiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi;

- kitobxonlik konferensiyalarida yangi usul maktabi tarafdorlarining axloqiy tarbiyaga doir she'r va hikoyalaridan foydalanilishi natijasida o'quvchilarda yaxshi va yomon xulqlarning farqi va tafovutlarini ajrata bilish, anglash hollari kuzatildi;

- asarlardagi qahramonlardan o'rnak olish, salbiy sifatlarga qarshi kurashish ko'nikmalari shakllanishi hamda rivojlanishi kuzatildi.

Boshlang'ich sinflarda savl-javob o'yinlarini o'tkazish

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarning muhim shakllaridan biri qiziqarli savol-javob o'yinlari (vitktorinalar) o'tkazish hisoblanadi. Ko'zda tutilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib qiziqarli savol-javob o'yinlarini turli shakllarda o'tkazish mumkin.

- ma'lum bir fan bo'yicha (o'qish, matematika, atrofimizdagi olam);

- bayramlar, maktab hayotidagi muhim sanalar bo'yicha ("Navro'z – ulug' bayram", "N.Nuriddinov-atoqli pedagog");

- sinfdan tashqari o'qilgan asarlar bo'yicha ("Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" darsligida axloq-odob to'g'risida", "Yangi usul maktabi tarafdorlari axloq-odob to'g'risida");

- o'qish darslarida o'tilgan mavzular bo'yicha ("Ertaklar – yaxshilikka etaklar");

- jamiyat hayotidagi o'zgarishlar haqida («I.A.Karimov – O'zbekistonning birinchi Prezidenti», «Mustaqil davlatimiz rahbari») va boshqalar.

Odatda qiziqarli savol-javob o'yinlari parallel, ba'zi hollarda esa, maktablar o'rtasida o'tkaziladi. Ko'p yillar davomida olib borgan kuzatishlarimiz, ilmiy-

tadqiqot ishimizning xususiyatidan kelib chiqib o'tkazgan bir qator qiziqarli savol-javob o'yinlarining natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinflarda qiziqarli savol-javob o'yinlari o'tkazish uchun quyidagilarga alohida e'tibor berilishi lozim:

- qiziqarli savol-javob o'yinlari o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsad;
- qiziqarli savol-javob o'yinlari o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish;
- qiziqarli savol-javob o'yinlarining natijalari.

Qiziqarli savol-javob o'yinlarini o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsad.

Sinfdan tashqari ishlarning tarkibiy qismlaridan biri qiziqarli savol-javob o'yinlarini o'tkazish hisoblanib, undan ko'zda tutilgan maqsad aniq bo'lmog'i lozim. Ko'p yillik kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, aksariyat hollarda bu sohada ham bir qator kamchiliklar mavjud:

- maqsad aniq ifodalanmasligi;
- o'yinning savollari chala holicha, pedagogik talablarga javob bera olmaydigan qilib tuzilishi;
- yaxshi tayyorgarlik ko'rilmay, shoshma-shosharlik bilan, hisobot uchun o'tkazilishi.

Biz tajriba-sinov ishimizning xususiyatlaridan kelib chiqib, bir qator viktorinalar o'tkazdik. Bundan ko'zda tutilgan maqsad quyidagilardan iborat:

- tajriba sinflarimizda yangi usul maktabi tarafdorlarining axloq-odobga doir hikoya va she'rlarini o'rganish;
- sinfdan tashqari o'qish darslarida yangi usul maktabi tarafdorlarining hayoti, faoliyati va axloq-odobga doir asarlaridan olgan bilimlarini savol-javob o'yinlarga tayyorlanish va o'tkazish orqali mustahkamlash, uning natijalarini tahlil qilish;
- yangi usul maktabi tarafdorlarining hayoti, faoliyati hamda axloq-odobga doir boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini viktorinaga tayyorlanish hamda o'tkazish orqali mustahkamlash.

Biz o'tkazgan viktorinalarning dasturlarida, tuzilgan savollarda, tanlab olingan qo'shiq, she'r va hikoyalarda, hatto, jismoniy tarbiyaga doir mashqlarda ham, bu hol o'z aksini topdi va inobatga olindi.

Boshlang'ich sinflarda qiziqarli savol-javob o'yinini o'tkazish uchun tayyorlanish davrida quyidagilarga alohida e'tibor berildi:

- qiziqarli savol-javob o'yini mavzusini tanlash, materiallar to'plash;
- qiziqarli savol-javob o'yini dasturini, savollarini puxta o'ylab tuzish;
- o'yinni tayyorlash, uni o'tkazish hay'atini tuzish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiziqarli savol-javob o'yini haqida tushuncha berish;
- mavzuga doir kitoblar ko'rgazmasini tashkil etish;
- o'yin bo'ladigan joyni jihozlash;
- o'yinga ota-onalar qo'mitasidan, shuningdek, homiy tashkilotlardan vakillarni va albatta suratchini taklif qilish.

Qiziqarli savol-javob o'yinlari o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalardan, to'plangan materiallardan kelib chiqib, o'yinning dasturi tuzildi. Dastur kirish, asosiy qism, badiiy qism va yakuniy qismlardan iborat bo'ldi.

Kirish qismda o'yindan ko'zda tutilgan maqsad, o'yin shartlari aytili. Hakamlar hay'ati tuzildi, ularning vazifalari ko'rsatib berildi. Shu bilan birga o'yinda qatnashuvchi jamoalarning o'zaro tabriklari, hakamlar hay'ati va muxlislarga munosabatlari, minnatdorchiliklari namoyon qilindi.

Asosiy qismda o'yindan ko'zda tutilgan maqsad to'la amalga oshirildi. O'yin uchun tuzilgan savollarga javoblar berildi va bu berilgan javoblar hakamlar hay'ati tomonidan baholandi, hamda qo'yilgan baholarga har bir shartdan keyin sharh berib o'tildi.

Badiiy qism o'yinni jonli o'tishida muhimdir. O'yinning bu qismida xalq og'zaki ijodi namunalari: maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, milliy o'yinlardan, shuningdek, folklor-etnografik qo'shiqlardan, o'tmish va hozirgi shoirlarning purhikmat she'rlaridan, dilbar qo'shiqlaridan foydalanildi.

Yakuniy qismda o'yinga taklif qilingan ota-onalar, maktabni otaliqqa olgan homiy tashkilot vakillariga so'z berildi. Ular qiziqarli savol-javob o'yinidan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlashdilar. Yutuq va kamchiliklarni ko'rsatib berdilar. Hakamlar hay'ati raisi ballarni, g'olib jamoani e'lon qildi va qimmatli sovg'alarni topshirdi. Maktab direktori o'yinga yakun yasadi.

Qiziqarli savol-javob o'yinlarining natijalari. Biz Qashqadaryo viloyatining qator maktablarida sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazdik. Bunda quyidagi natijalar ayniqsa o'z aksini topdi:

– yangi usul maktabi tarafdorlarining axloq-odobga doir hikoyalardan biz tajriba o'tkazayotgan sinflarda vatanparvarlik, ochiq yuzlilik, sahovat, o'zaro hurmat kabi sifatlar haqida o'quvchilarning bilimlari, tushunchalari kengaydi. Shuningdek, ular baxillik, ochko'zlik kabi xislatlarning salbiy natijalarga olib kelishini ko'rdilar. O'quvchilar yaxshi va yomon xulqlarni bir-biridan ajrata oldilar. Axloqiy hikoyalardagi kabi bir qator ijobiy axloqiy hatti-harakat qilishlari kuzatildi;

– tadbirlarga tayyorgarlik davrida boshlang'ich sinf o'quvchilari bir qator hikoyalarni, hamda jadid ma'rifatparvarlarining hayoti, pedagogik faoliyati to'g'risidagi materiallar bilan tanishdilar. Bu o'z navbatida o'quvchilarning tarbiyasida ijobiy natijalarini bera boshladi. Tadbir natijasi o'quvchilarning axloqiy hikoyalarni qay darajada tushunganlarini ko'rsatib berdi;

– yangi usul maktabi tarafdorlarining hayoti, faoliyatini o'rganish o'qish darslarida olgan bilimlari, tushunchalarining mustahkamlanishi, rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

«Rostgo'y bola» mavzusidagi suhbatning reja – sxemasi.

Biz tadqiqot ishimizning xususiyatlaridan kelib chiqib, axloqiy mavzuda bir qator suhbatlar o'tkazdik. Jumladan; Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi 2-o'rta maktabdagi 4 "a" sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan **«Rostgo'y bola»** nomli mavzuda o'tkazilgan suhbatning reja-sxemasi:

Mavzu: Rostgo'y bola.

Maqsad: a) o'quvchilarga rostgo'ylik haqida bilim berish;

b) rostgo'ylik-insonga xos eng yaxshi fazilat ekanligini tushuntirish;

v)o'quvchilarni rostgo'ylikka, to'g'ri so'zlashga odatlantirish.

Mashg'ulotning jihozlanishi:

a)axloqiy tarbiyaga doir asarlar: Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi soniy" darsligi, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari;

b)o'quv texnika vositalari: slayd, magnitofon;

v)plakatlar: Munavvarqori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniyning rasmlari;

g)didaktik materiallar: "Egri va To'g'ri" diafilmi.

I-Mashg'ulotning borishi: o'quvchida mavjud bilimlarni egallash va mustahkamlash uchun savollar:

Vatan va vatanparvarlik haqida gapirib bering?

Vatanni sevmqlik deganda nimani tushunasiz?

Siz nima uchun O'zbekistonni sevasiz?

Vatan xoini deganda nimani tushunasiz?

Vatan haqida she'r aytib bering.

II.Yangi suhbat mavzusi bayoni:

-rostgo'ylik fazilatining mazmun, mohiyati va tavsifini tushuntirib berish;

-rostgo'ylik, to'g'ri so'zlash hamda yolg'on so'zlash tushunchalarining o'zaro farqini Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi soniy" darsligidagi "Sodiq ila Orif" va Abdulla Avloniyning "Haqqoniyat" hikoyatlari orqali tushuntirib, bu masalada o'quvchilar bilan fikr almashish;

-o'quvchilardan rostgo'ylik haqidagi she'r, hikoya, hikmatli so'zlar va hadis namunalarini so'rash va muhokama qilish;

III.Mavzuni mustahkamlash:

-o'quvchilar bilan birga "Egri va To'g'ri" diafilmini ko'rish va fikr almashish;

-magnitofon orqali Saidrasul Aziziyning "Fatonat" hikoyasini eshitish va muhokama qilish.

IV.Mustaqil ishlash uchun topshiriq:

-o'quvchilarga rostgo'ylik haqidagi she'r, hikoya, maqol va hadisi sharifdan namunalarini yod olib, o'rganib kelishlari hamda ertak o'qishlari tavsiya qilinadi;

-suhbat muammosi bo'yicha "Rostgo'ylik-ulug' fazilat" mavzusida hikoya tuzib kelishi vazifasi beriladi.

Boshlang'ich sinflarda yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik merosi bo'yicha quyidagi suhbat mavzularini tanlash va o'tkazish mumkin:

-birinchi sinfda: "Yaxshi xulqli bola", "Yolg'onchilik-eng yomon fazilat", "Do'stlik-ulug' fazilat", "Ochko'zlik", "Vatan".

-ikkinchi sinfda: "Yomon va yaxshi bola", "Sabr", "Rostgo'ylik-eng ulug' fazilat", "Munislik", "Vatanimiz ramzlari".

-uchinchi sinfda: "Yolg'onchi bola", "Tarbiyali bola", "Do'st har xil bo'lur", "Nafs", "Mustaqil O'zbekiston".

-to'rtinchi sinfda: "Tarbiyali va tarbiyasiz bolalar", "Yolg'onchi cho'pon", "Sabrning tagi rohat", "Rostgo'y bola", "Vatanni sevmok-iymondandur".

Axloqiy mavzudagi suhbatlardan namuna. Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi 2-o'rta maktabning 3-"A" sinfida o'tkazildi.

Mavzu: O'zbekiston-Vatanim manim.

Maqsad: o'quvchilarga Vatan, vatanparvarlik, O'zbekistonning davlat ramzlari haqida bilim berish, o'quvchilardagi vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish, Vatanni, O'zbekistonni sevishga odatlantirish.

Mashg'ulotning jihozlanishi:

Plakatlar va rasmlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov va ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning rangli rasmlari; O'zbekiston Davlat ramzlari tushirilgan plakatlar, O'zbekiston Respublikasining xaritasi.

Badiiy va didaktik materiallar: Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bolalarga atab yozgan she'rlari, hadislardan, xalq maqollari va hikmatli so'zlardan, zamondosh shoirlarning she'rlaridan namunalar.

O'quv texnika vositalari: O'zbekiston madhiyasi yozilgan plastinka, plastinkali radioli magnitofon.

Mashg'ulotning usullari: suhbat, tushuntirish, savol-javob, shaxsiy namuna.

Mashg'ulotning borishi:

O'quvchilar: assalomu-alaykum, ustoz!

O'qituvchi: M.Jalolova: vaalaykum assalom, bolajonlar.

O'zbekistonning davlat madhiyasi radio orqali eshitiladi va barcha o'quvchilar jo'r bo'ladi.

M.Jalolova: mustaqillik shabadasidan erkin nafas olayotgan aziz o'quvchilar, darsga hamma tayyormi?

O'quvchilar: ha, ha tayyormiz!

M.Jalolova: bugun axloqiy mavzudagi suhbatlarda "O'zbekiston Vatanim-manim" mavzusini o'tamiz.

Vatan-tuyg'usi har bir kishida o'z uyiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, eng yaqin kishilari, ota-ona, opa-singillariga bo'lgan munosabatida aks etadi. Vatan so'zi hamisha ona so'zi bilan yonma-yon keladi. Ona-Vatan shunday tushunchaki, u kishi qalbidan hech qachon o'chmaydi. Ona-Vatan timsolida biz jamiyatimiz tabiatini, mehribonlik va muvofiqlik poydevoriga qurilgan tuzumimiz xislatini ko'ramiz. Kelajakda buyuk davlat darajasiga ko'tarilish maqsadi yo'lida intilayotgan O'zbekiston Vatani-xalq hayoti, turmush tarzi, urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirmoqda.

Vatanparvarlik-bu ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish, e'zozlash. Uning ravnaqiga har bir fuqaroning o'z hissasini qo'shishga erishishdir.

Vatanparvarlik-bu ona-Vatan, mustaqil O'zbekiston tushunchalarini o'z ongiga singdirish va unga sodiq bo'lishiga erishishdir.

Vatanparvarlik-bu o'z millatiga, ona eriga, iymoniga sodiqlikdir.

Vatanparvarlik-bu o'zbek xalqining qadim-qadimlardan Turon, Movarounnahr, Turkiston deb atalib kelingan ko'hna zaminning tarixini bilishdir.

O'zbekiston, o'zbek xalqi haqida minglab asarlar yozilgan. Shoir Erkin Vohidovning "O'zbekim" deb nomlangan she'ri bunga yaqqol misol bo'la oladi:

Tarixingdir ming asrlar,
Ichra pinhon, o'zbekim.
Senga tengdosh Pomiru,
Oqsoch Tiyon-shon, o'zbekim...

Darhaqiqat, bir necha asrlarga borib taqalguvchi Vatanimiz tarixi haqida bizning sinfni otaliqqa olgan IX "A" sinf o'quvchilari qisqacha ma'ruza tayyorlab kelganlar.

Cho'liev S.: O'zbekiston bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan yurt. O'zbekiston zaminida bundan bir necha ming yillar oldin odamzod paydo bo'lgan, dastlabki, manzilgohlar qurilgan. Bizning diyorda So'g'diya, Baqtriya, Parfiya, Xorazm, Kushon, Marg'iyona kabi davlatlar bo'lgan va butun dunyoda shuhrat topgan. Markaziy Osiyo davlatlaridan biri bo'lgan O'zbekiston hududi ham qadimda Turon, Movarounnahr, Turkiston, O'rta Osiyo va nihoyat Markaziy Osiyo deb nomlangan. O'lkamizda butun olamga mashhur bo'lgan Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Bahovaddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Komil Xorazmiy, Nodira, Zebuniso, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori va Abdulla Avloniy kabi donishmandu ma'rifatparvarlar yashab, ijod etganlar, umumbashariyat rivojiga munosib hissa qo'shganlar. Qadim-qadimdan bosqinchilar o'lkamizga ko'z olaytirganlar, bostirib kirganlar, mag'lubiyatga uchraganlar. Ayniqsa, Kir, Doro II, Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy), Chingizxon, Nodirshoh va nihoyat Chor Rossiyasi bosqini bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xalqimizning mard, botir o'g'il va qizlari: To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Qurbonjon Dodxo, Sobir Raximov va boshqalar bosqinchilarga qaqshatqich zarba berganlar. Diyorimizni bosqinchilardan ozod qilganlar. Nihoyat olib borilgan ko'p yillik kurashdan so'ng xalqimiz mustaqillikka erishdi.

O'.Beknazarova: O'zbekiston Oliy Kengashining sessiyasi O'zbekiston Respublikasini mustaqil davlat deb e'lon qildi. Bu voqea 1991 yil 31 avgust kuni ro'y berdi. 1-sentabr Mustaqillik kuni deb e'lon qilindi.

N.Avazova: O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991 yil 18 noyabr kuni tasdiqlangan.

Davlat bayrog'i bugungi O'zbekiston hududida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan-milliy bog'liqligini anglatadi hamda Respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zaro mujassamlashtiradi. Bayroqdagi moviy, oq, yashil ranglar, qizil chiziqlar, navqiron yarim oy va yulduzlar tasvirining mazmuni tushuntirib berildi.

N.Azimova: O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992 yil 3 iyul kuni tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbini ifodalab berdi.

K.Hoshimov: 1991 yil 29 dekabr-muqobillik asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari o'tkazilib, I.A.Karimov O'zbekistonning umumxalq tomonidan saylangan birinchi Prezidenti bo'ldi. O'zbekistonni Mustaqil

davlat sifatida 160 dan ortiq davlat tan oldi va 80 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992 yil 2 mart kuni O'zbekiston BMT ga a'zo qilib olindi. Mustaqil davlatimizning asosiy qonuni-Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilindi.

M.Norov: O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasining matnini O'zbekiston Qahramoni, atoqli shoir Abdulla Oripov yozgan, Mutal Burxonov madhiyamizning musiqasini bastalangan. Madhiyani o'quvchilar yoddan aytib berishdi.

M.Jalolova: rahmat, bolalar. Siz ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyni bilasizmi? Abdulla Avloniy mashhur ma'rifatparvar, ajoyib shoir, dramaturg, davlat va jamoat arbobi bo'lib, siz bolalarga atab "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Uchinchi muallim", "Adabiyot", "Maktab gulistoni", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Hisob" kabi asarlarni, darsliklarni yozgan. Hozir sizlarga Abdulla Avloniyning mashhur asari "Turkiy guliston yoxud axloq" da Vatan, vatanparvarlik haqidagi "Vatanni suymak" bobining magnit tasmasiga tushirilgan qismini qo'yib beraman. Diqqat bilan eshiting. (Hamma eshitdi)

M.Jalolova: qani kim aytadi, siz nima uchun vatanimizni yaxshi ko'rasiz? O'zbekiston nimasi bilan sizni o'ziga ko'proq tortadi?

O'.Beknazarova: men shu erda tug'ilganim, ota-onam, qavmu qarindoshlarim, dugonalarim O'zbekistonda, Mirishkor qishlog'ida yashayotgani uchun men Mirishkorni, O'zbekistonni jonimdan ortiq yaxshi ko'raman.

A.Norov: men O'zbekistonning havosini, quyoshini, mevalari-yu, qovuntarvuzlarini yaxshi ko'raman.

J.Murtozaev: men o'tgan yil ota-onam bilan qo'shni Turkmaniston Respublikasining Chorjo'y shahrida bo'ldim. Bir hafta ichida Mirishkor qishlog'imizni O'zbekistonni, sinfdosh va do'stlarimni sog'indim.

M.Jalolova: darhaqiqat, Vatan, vatanparvarlik-insonga xos bo'lgan eng ulug', eng ijobiy fazilat hisoblanadi. Endi sinf o'quvchilarini ikki: "Istiqlol" va "Istiqbol" guruhlariga bo'lamiz. Sizlarga aytganimdek, she'r, hikoya, maqol, ertak, rivoyat va hadislardan Vatan, vatanparvarlik, O'zbekiston haqida tayyorlab kelgan ishlaringizga ball qo'yib boramiz. Kim yaxshi qatnashsa, g'olib bo'lsa, sovg'a oladi. Qani "Istiqlol" guruhi boshlab bersinchi:

J.Rahmonov: Har ishda g'olib yo'ldosh,
"Istiqlol" Xalqqa mehribon, qo'ldosh.
Bamisli mehri quyosh,
Vatanim bor, Vatanim.

L.Hamroeva: Istiqbolim-yuragim,
"Istiqlol" Mening oppoq tilagim.
Tog'day tutay ko'kragim.

Cho'liev K: Mustaqillik yashasin..
"Istiqlol" Ko'kday bepoyon,
Boyliklarga kon.
Keng paxta maydon,
Mening Vatanim.
Xalqlar erkin, shod,

Yashaymiz ozod.
Mehnatkash avlod,
Mening Vatanim.
Bosh ko'tarsa yov,
Yanchamiz darrov.
Tinchlikka garov,
Mening Vatanim.

Z.Oromova: Vatanni sevmak iymondandur.

“Istiqbol”

S.Oripov: A'lo mamlakatning a'lo farzandi,
“Istiqbol” Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi.

N.Azimova: Bulbul chamanni sevar,
“Istiqbol” Odam Vatanni,

M.Orziev: Vatan-ona,
“Istiqbol” Ostonasi oltin.

O.Nodirov: Ona yurtning omon bo'lsa,
“Istiqbol” Rangu-ro'ying somon bo'lmas.

A.Boboev: (U “Shiroq” afsonasini aytib berdi).
“Istiqbol”

M.Jalolova: Shiroq haqidagi afsonaga yakun yasadi. So'ngra Abdulla Avloniyning “Vatan” she'rini “Istiqbol” guruhi a'zolari ifodali o'qib berdilar.

D.Bekturdieva: Abdulla Avloniyning “Vatan” she'rini I.Haydarova, M.Allaeva, E.Sharipovlar ijro etadilar.

M.Jalolova: juda yaxshi, rahmat bolalar. Endigi navbat “Istiqbol” guruhi a'zolariga.

Abdulla Avloniyning “Hijron so'zi” she'rini S.Gullieva, F.Haqqieva, Sh.Jo'raevlar ijro etishdi.

Mashg'ulotga o'qituvchi yakun yasab, guruhlarining to'plagan ballarini va mashg'ulotda faol ishtirok qilgan o'quvchilarni ta'kidlab o'tdi. Shu bilan dars yakunlandi.

«Odobli bola bo'lamiz» nomli adabiy ertalikning dasturi va tafsiloti

Kirish. O'zbek tilidagi ilk alifboni bilasizmi? Ma'ruzachi: 1-«a» sinf o'qituvchisi Hoshimova K.

Asosiy qism: «Odobnoma darsi» nomli kompozitsiya. 1-«a» va 1-«b» sinf o'quvchilari ijrosida.

Badiiy qism: 1. «Xorazm» lazgisi o'yini «Yosh raqqosalar» to'garagi a'zolari ijrosida.

1. «Befarosat»-1 «v» sinf o'quvchilarining sahna ko'rinishlari.

2. «Vatanimdir O'zbekiston» qo'shig'i. «Yosh ijrochilar» to'garagi a'zolari ijrosida.

3. «Fatonat»-1, 4 -g» sinf o'quvchilarining sahna ko'rinishlari.

Yakuniy qism: 1. «Odobli bola bo'lamiz» 1-sinf o'quvchilaridan ikkitasining ertalik haqidagi fikrlari.

2. Adabiy ertalikni tayyorlashda va o'tkazishda faol ishtirok qilgan o'qituvchilar va o'quvchilarni rag'batlantirish va mukofotlash (maktab ma'muriyati va homiy tashkilotlar tomonidan)

Adabiy ertalikning tafsiloti

Kirish

*Olib boruvchi: Assalom deya qo'ydim sarlavha
Yurak so'zlarim bo'lsin bir lavha
Mirishkor uzra tushganda oqshom
Men sizga yo'llayman otashin salom*

Assalomu alaykum, aziz mehmonlar va mezbonlar! Hurmatli ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar. Birinchi sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan «Odobli bola bo'lamiz» deb nomlangan adabiy ertaligimizga xush kelibsiz! Bugungi tadbirimizga Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval» darsligi asos qilib olingan va xalq maqollari, hadis namunalari va albatta, shoirlarimizning ajoyib purhikmat she'rlaridan foydalandik. So'z navbatini 1-«a» sinf rahbari K. Hoshimova domlamizga beramiz.

Hoshimova K: Assalomu alaykum ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar.

O'tgan asrning oxiri-asrimiz boshlarida eski maktablarga bir qator yangilik kiritildi. O'quvchilar tezroq savod chiqarishlari uchun qulayroq bo'lgan usulda alifbo darsliklarini tuza boshladilar. Mashhur ma'rifatparvar bobomiz Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval»i shulardan biridir. Bu darslik 1902 yilda nashr qilingan bo'lib, 1917 yilga qadar 17 marta qayta-qayta chop etilgan. Bu darslikdagi hikoyalar yigirmadan ortiq bo'lib sharq, xususan o'zbek xalq og'zaki ijodi, afsona, ertak va maqollar, hadisi sharifdan va rus klassiklarining asarlaridan foydalanilgan.

Bu hikoyalar nihoyatda sodda, bolalarning yoshiga, dunyoqarashiga mos tarzda yozilganligi diqqatga sazovordir. Bu darslikning 20-betigacha xat-savod o'rganishga ya'ni harflarni o'rganish, kichik-kichik hikoyalar tuzishga bag'ishlangan. Shundan ham ko'rinib turibdiki, osondan qiyinga ya'ni harflardan bo'g'inlarga, undan so'z, gaplarga keyin esa kichik-kichik hikoyalargacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga olgan. Hikoyalarni ham avval kichik, soddarog'lari, asta-sekin kattarog'lari berilgan. Bu hikoyalarning aksariyati odob-axloq mavzularida bo'lib, bolalarni yaxshilardan o'rnak olishga, odobli, aqlli bola bo'lishga chorlaydi. Yomon, beadab, aqlsizlikning qay darajada yomon illat ekanligini 1-sinf o'quvchilari tayyorlab kelgan sahna ko'rinishlari orqali o'zingiz bilib olasiz, undan kerakligicha xulosa chiqarasiz. O'ylaymanki, sizlar ham odobli bola bo'lishga harakat qilasizlar.

ASOSIY QISM:

Olib boruvchi: Rahmat domla. Bugungi tadbirga 1-«a» va 1-«b» sinf o'quvchilari «Odobnoma darsi» nomli kompozistiya tayyorlab kelganlar. Endigi navbatni ularga beramiz. Qani marhamat bolalar.

Sahnada sinf xonasi aks ettiriladi. Stol va stullar qo'yilgan. O'quvchilardan biri o'qituvchi rolida o'ynaydi.

O'quvchilar: Assalomu alaykum, ustoz!

O'qituvchi: Vaalaykum assalom, mullo bo'linglar.

Bolalar bugungi darsga hamma tayyormi?

O'quvchilar: Hamma tayyor, hamma darsga tayyor (ovozlar)

O'qituvchi: Qani o'tgan darsda qanday mavzu o'tgan edik?

1-o'quvchi: O'tgan darsda "Ma'rifatparvar bobomiz Saidrasul Aziziyning odob to'g'risidagi fikrlarini o'rganamiz" mavzusini o'tgan edik.

O'qituvchi: Odobli bola qanday bo'lar ekan?

2-o'quvchi: Odobli bola har kimga har xil so'zlarini so'zlamaydi.

O'qituvchi: Bu fikrni kim to'ldiradi?

3-o'quvchi: Odobli bola odamlar bor joyda yonboshlab, ag'anab yotmaydi. Har kimni so'ziga aralashmaydi.

O'qituvchi: Yomon bola qanday bo'ladi?

4-o'quvchi: Yomon bola kitob va daftarlarini kir qiladi.

O'qituvchi: Yaxshi, Salima, siz ayting, poklik deganda nimani tushunasiz?

Salima: Komil inson bo'lish uchun avval ilm, undan so'ng odob va poklik lozimdir:

O'qituvchi: Bu fikrlarni kim to'ldiradi?

6-o'quvchi: Nopok va beodob odam mullo bo'la olmaydi.

O'qituvchi: Biz o'tgan darsda sizlarga "Beodob" nomli hikoyani o'qib kelishni aytgan edik. Hamma o'qib keldimi?

O'quvchilar: Ha, hamma o'qib keldi.

O'qituvchi: Anvarjon, qani siz aytib beringchi.

Anvarjon: Bir odam xat yozib o'tirganda bir begona kishi uning oldida o'tirib, xatiga qaradi. U odam xatida shunday yozadi: "Bir begona axmoq oldimda o'tirib xatimga qaradi. Shu sababli hech bir sirni yoza olmadim". U kishi: "Men xatingni o'qiganim yo'q. Nega meni ahmoq debsan?"-deganida: "Agar xatimni o'qimagan bo'lsang ahmoq deb yozganimni qaerdan bilding?"-deb uyaltiribdi.

O'qituvchi: Ey, shogirdlar! Birov xat yozganida aslo qaramanglar, beodoblik bo'ladi. Hamma o'tgan mavzuni tushundimi?

O'quvchilar: Ha, ha.

O'qituvchi: Hammangizga a'lo, har doim shunday o'qib, rahmat olinglar. Xayr bolalar.

O'quvchilar: Xayr ustoz.

Olib boruvchi: Sizlar ham doimo yaxshi bilim olib, yaxshi o'qinglar. Hadisi sharifda shunday purhikmat so'z bor: "Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir".

BADIY QISM:

Olib boruvchi: Endigi navbatni maktabimizdagi "Yosh raqqosalar" to'garagi a'zolari tayyorlab kelgan "Xorazm lazgisi" o'yiniga beramiz.

Hamma o'yinni tomosha qiladi:

Olib boruvchi: Hadisi sharifda shunday so'z mavjud: "Farzandingizni izzat-ikromli qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar". Navbatdagi sahna ko'rinishi odob-axloqqa doir bo'lib, Saidrasul Aziziy bobomizning yoshlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi "Befarosat" hikoyasi asosida tayyorlab kelingan.

1-o'quvchi: Bir odam kasal kishining oldiga kelib, uzoq so'zlab kasaldan so'rabdi:

2-o'quvchi: "Sizga nima yoqadi va ta'bingiz nimani xohlaydi?"

1-o'quvchi: Kasal kishi aytibdi:

3-o'quvchi: "Menga yolg'izlik yoqadi va ta'bim sizdek nodon, ezma kishini hech vaqt ko'rmaslikni xohlaydi".

4-o'quvchi: Ma'lum bo'ldiki, keragidan ziyoda so'zlash kishini xor qiladi.

Olib boruvchi: Rahmat bolalar. Darhaqiqat ko'p gapirib, ezmalik qilish yomon sifat ekanligiga yuqoridagi sahna ko'rinishi orqali yana bir karra ishonch hosil qilgandirsiz. Mashhur shoir Amir Xusrav Dehlaviyning quyidagi misralari diqqatga sazovordir.

Qisqa so'zlik, qara, ne yaxshi holdir,

Sergaplik tamoman dilga maloldir.

Bugungi tadbirga maktabimizning "Yosh ijrochilar" to'garagi a'zolari "Jon O'zbekiston" nomli qo'shiq tayyorlab kelishgan. Endigi navbatni ularga bersak...

Olib boruvchi: Rahmat bolalar. Bolalar siz "Fatonat" degan so'zni eshitganmisiz? Fatonat-o'tkir zehn, ziyraklik yoki tez fahmlilik degan ma'nolarni bildiradi. Ma'rifatparvar bobomiz Saidrasul Aziziyning shu nomdagi hikoyasi asosida 1-g sinf o'quvchilari sahna ko'rinishi tayyorlab kelishgan, navbatni ularga beramiz.

1-o'quvchi: Bir bola bir kun o'rtog'ining ko'chasidan o'tganida eshigiga "eshak" degan so'zni yozib ketibdi. Bu xatni o'rtog'i ko'rib u bolaga aytibdi.

2-o'quvchi: O'rtoqjon, siz borganingizda men uyda yo'q ekanman. Darvozaga nomingizni yozib ketgan ekansiz. O'zim siz borganingizda uyda yo'q ekanimga ozroq afsus qildim.

3-o'quvchi: Ma'lum bo'ladiki, behuda so'zni yozgan kishi yomon uyaladi.

YaKUNIY QISM

1. "Odobli bola bo'lamiz", 1-sinf o'quvchilaridan ikkitasining tadbir haqidagi fikrlari.
2. Adabiy ertalikni tayyorlashda va o'tkazishda faol ishtirok qilgan o'qituvchi va o'quvchilarni maktab ma'muriyati, homiy tashkilotlar tomonidan mukofotlash, rag'batlantirish.

XULOSA

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda sinfdan tashqari o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Tajriba ishi davomida bu sohada bir qator xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi aniqlandi:

– ko'p o'qituvchilar sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi haqida etarlicha bilimga ega emaslar;

– aksariyat tadbirlar shoshqaloqlik bilan nomigagina, zerikarli qilib o'tkazilmoqda;

– tadbirlar ba'zi maktablarda juda kam hollarda, yiliga bir yoki ikki marotaba o'tkazilmoqda;

– tarbiyaviy tadbirlarda yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik merosidan deyarli foydalanilmayapti, bu haqida metodik qo'llanma tavsiyanomalar deyarli yo'q.

2. Olib borilgan tajriba ishlari natijasida quyidagi xulosalarga keldik;

– o'quvchilarda axloqiy fazilatlarni mazmun, ma'nolari haqida chuqur bilim hosil bo'ldi;

– she'r va hikoyalardagi axloq-odoblilik kishilarga o'xshashga taqlid qilish, yomon sifatli kishilarga nafrat hissi paydo bo'lganligi kuzatildi;

– tadbirlarni o'tkazish davomida o'qituvchilar o'quvchilarining xulqi, axloq-odobi, fe'l-atvori, xohish-istak va mayllari haqida chuqurroq ma'lumotga ega bo'ldilar;

– o'quvchilar tadbirlar orqali yangi usul maktabi tarafdorlarining hayoti, faoliyati va asarlari haqida darslarda olgan bilimlari kengaydi, mustahkamlanib o'quvchilarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

3. Tajriba ishining shakllantiruvchi bosqichida tajriba o'tkazilayotgan sinflarning o'qituvchilari va ota-onalari o'rtasida jadid ma'rifatparvarlarining hayoti, faoliyati va asarlari; axloq-odob tushunchalarining mazmuni; mazmun va mohiyati haqida davra suhbatlari, fikr almashuvlar, nazariy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Natijada:

– o'qituvchi va ota-onalar ma'rifatparvar-pedagoglarning hayoti, faoliyati va pedagogik asarlari, ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari haqida etarlicha bilimga ega bo'ldilar;

– ota-onalar farzandlarini axloqiy tarbiyalashda quruq gap-so'z, nasihatbozlikdan aniq manbalar asosida dalil va isbotlar orqali farzandlariga tarbiya bera boshladilar;

– boshlang'ich sinf o'qituvchilari sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida jadidlarning asarlaridan keng ko'lamda foydalanmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent.:Sharq, 1997, 32-63 betlar.

2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Toshkent: O'zbekiston, 1995

3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. Toshkent.: O'zbekiston, 1996.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008

5. Miliy istiqbol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: O'zbekiston, 2001, 80-bet

6. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. Toshkent.:Fan, 1994.

7. Ochilov M., G'afforova T. Studentlarning ilmiy-tadqiqot ishlari. Qarshi, 1990.

8. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. Toshkent.: O'qituvchi, 1997.

9. Ochilov M. Muallim - qalb me'mori. Toshkent: O'qituvchi, 2000.

10. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi-muallif. Hasanboeva O. Toshkent: O'qituvchi, 1993.

11. Rahmatullaev T., Qodirova M. Maktablarda milliy tarbiya asoslari. Qarshi: «Nasaf» nashriyoti, 1996.

12. Saidrasul Aziziy. Ustodi avval. 14-tab'a. V.I.Ilin litografiyasi, 1906.
13. Xudaykulov M.A. Prosветitelskaya deyatelnost dжadidov Turkistana (konest XIX -nachalo XX veka). Avtoreferat dissertastii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata istoricheskix nauk. Tashkent, 1995.
14. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov K., Ochil S., Toshkent: O'qituvchi, 1995.
15. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov K., Ochil S., Toshkent: O'qituvchi, 1999.
16. O'zbek pedagogikasi tarixi. A.Zunnunovning umumiy tahriri ostida. Toshkent: O'qituvchi, 1997.
17. G'afforova T va boshqalar. Ona tili 1-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
18. Hamroyev Sh. Boshlang'ich sinflarda axloqiy tarbiyaga doir adabiy kechalar o'tkazish. (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). Qarshi, "Nasaf" nashriyoti, 1999.
19. Hamroyev Sh. Maktablarda ertaliklarni tashkil etish va o'tkazish. "Xalq ta'limi" jurnali, 2000, 3-son, 101-103-betlar.
20. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
21. Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li. Adibi soniy. Toshkent: G'ulom Hasan Orifjonov litografiyasi, 1912.